

XALQ HARAKATLI O'YINLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISH XRONOLOGIYASI

*Farg'ona davlat universiteti Sport faoliyati fakulteti
Sport o'yinlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o'qituvchisi
Nizomov Akmaljon Akramjon o'g'li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq harakatli o'yinlarining paydo bo'lishi, qadimgi ota-bobolarimiz asarlaridan xalq harakatli o'yinlarida oqilona foydalanish va xalq harakatli o'yinlarining kelajak avlod uchun foydali tomonlari keltirilgan. Bundan tashqari maqolada xalq harakatli o'yinlarining kelajak avlodga yetib borishi hamda rivojlanish xronologiyasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tarixiy, xalq harakatli o'yinlari, amaliy, ta'lim, taraqqiyot, xronologiya.

Annotation: This article presents the emergence of folk action games, the wise use of the works of our ancient ancestors in folk action games, and the benefits of folk action games for the future generation. a chronology of development is presented.

Key words: Historical, folk action games, practical, educational, development, chronology.

Аннотация: В данной статье представлено возникновение народных игр-действий, мудрое использование произведений наших древних предков в народных играх-действиях, а также польза народных игр-действий для будущего поколения, представлена хронология развития.

Ключевые слова: Исторические, народные игры-действия, практические, образовательные, развивающие, хронология.

Kirish: Mamlakatimiz o'z erkiga ega bo'lgandan so'ng, ijtimoiy hayotimizning turli jabhalarida, xususan, sport sohasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Ayniqsa, yurtboshimiz sport sohasini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratdi. Bu bejiz emas, albatta.

Sport-sog'lom muhitni yaratishda, yosh avlodni har tomonlama jismonan va ma'nan kamol toptirishda hal qiluvchi kuchga ega. Sababi, biz hamon taraqqiyot sari ketayotgan ekanmiz, hali yo'limizda yechilishi kerak bo'lgan ta'limiy muammolar talaygina. Masalan, shu kunlarda hayot talabi va tarbiya uslublari o'rtasida qandaydir zaiflik, bo'shliq mavjud. Binobarin, manashu bo'shliqni to'ldirish uchun xalqimizning bebaho an'analari va noyob qadriyatlaridan hisoblanmish xalq harakatli o'yinlari, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari muhim o'rin tutadi.

Xo'sh xalq harakatli o'yinlarining maqsadi nima? Albatta, bu o'yinlar ermak uchun o'ynalmaydi. Chunki, bu zukko xalqimizning asrlar mobaynida jamlagan

an'anaviy javohirlar majmuasidir. O'zbek elining donishmandligini qarangki, har bir o'yin, avvalo, sodda, qiziqarli tuzilgan bo'lib, uning mag'ziga xalqona ohang, milliylik, mehr-oqibat, jasorat, mardlik kabi tuyg'ular singdirilgandir. Ta'lim va tarbiyaning bunday uyg'unligi yetuk insonni tarbiyalash uchun dasturulamal vazifasini o'taydi.

Taraqqiyotning har qanday bosqichlarida ham katta avlod vakillari kenja avlod vakillari uchun yordam qo'llarini cho'zib, imkon qadar o'z to'plagan bilim va tajribalarini yoshlarga ham tinmay o'rgatib, tadrijiy bog'lanishni vujudga keltirdi

Natijada, yoshlarda jismoniy tarbiyaga bo'lgan intilish kuchayib, bu hol odatiy bo'lib borgan. Agar xalq harakatli o'yinlarini sinchiklab o'rganadigan va ularning har birini ko'rib, tanishadigan bo'lsak, nafaqat ko'zingiz quv naydi, balki, bu qalbingizga ma'naviy yetuklik, jismoniy barkamollik tuhfa etadi.

Demak, qizlarni jismoniy tarbiyalash jarayonida xalq harakatli o'yinlaridan o'z o'rnida ko'p foydalanilsa, o'yinlarning ta'surchanligi ham oshadi. Buning mamlakatimiz va millatimizning dunyo miqyosidagi nufuzi yuksalishi uchun ahamiyati katta. Shunday qilib, xalq yaratgan harakatli o'yinlar mehnat, turmush tarzi, atrof muhit tabiati, xalqning ma'daniy merosi, an'analari, urf-odatlarini, umuminsoniy qadriyatlarni bilan birikib ajoyib mutanosiblikni hosil qiladi.

Yoshlarni jismoniy tarbiyalash jarayonida ayrim majburiy mashqlar o'rniga milliy xalq o'yinlari, raqslari, jismoniy mashqlarni va milliy sport turlarini saralab olish, ularni hajmi, yo'nalishi va ta'sirchanligini belgilashda Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub", "Farhod va Shirin", Umar Hayyomning "Navro'znoma", Abu Ali ibn Sinoning "Al-Qonun", Kaykovusning "Qobusnoma" asarlari manba bo'lib xizmat qiladi.

Xalq harakatli o'yinlarining paydo bo'lishi: Fidoiy xalqimiz necha yuz yillar davomida har bir o'yinni qalb qo'ri bilan yaratdi, sayqalladi va mukammallashtirdi. Saralangan o'yin turlarini kelgusi avlodlar uchun ko'z qorachig'iday asrab avaylab keldi.

Tarixga murojaat qiladigan bo'lsak, ibtidoiy jamoa davridayoq xalq harakatli o'yinlarining dastlabki namunalari paydo bo'la boshlagan.

O'yinlarning tabiiy va tarixiy taraqqiyoti mehnat jarayoni bilan bog'liq. O'yinning ilk boshlang'ich ko'rinishi ibtidoiy jamiyatda sintetik (qorishiq) san'at qismi sanalib, insonning mehnat va kundalik faoliyatini ifodalagan. Ular qo'shiq, raqs, musiqa bilan ajralmas bo'lgan.

Qadimiy ajdodlarimizning yovvoyi hayvonlarni ovlashlari va ularni o'zlariga bo'ysundirishga intilishlari ov voqealarini ijod qilish hamda namoyish qilishga zarurat tug'dirgan. Mashhur olim D.U. Elkonin o'yinlarning kelib chiqishini o'rganib "...ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini va boshqa jiddiy faoliyat turlarini o'yinlarda ifodalaganlar. Ovdagi muvaffaqiyatsizlikni o'ynash ularga yo'l qo'yilgan xatolarni

hamda muvaffaqiyatsizlikning sabablarini aniqlashda yordam bergan”, deb xulosa chiqaradi.

Tarixiy manbalarga qaraganda quyi paleolit davrida yer yuzining shimoliy qismida totemga oid "Ayiqlar bayramlari" ham bo'lgan. Totem ayiqqa bag'ishlangan afsonalarda bu bayram haqida ba'zi ma'lumotlarni o'qish mumkin. "Ayiqlar bayrami"ning variantlari va elementlari Sibir xalqlarining ba'zilarida XX asr boshlarida ham saqlangan va bunday bayramlarda ayiqlar timsolidagi kishi bosh qaxramon bo'lib, u ayiqlarning qiliqlarini bajarib raqsga tushib yurgan. O'rta Osiyoda esa "Ayiqlar o'yini" (pantomimik raqs sifatida) hozirgi davrgacha yetib kelgan. O'zbekiston hududida, shuningdek, Turkiya, Hindiston mamlakatlari hamda Kavkazorti Respublikalarining ayrim shahar va ko'chalarida ayiqlar o'ynatib yurgan odamni ko'rish mumkin. Ular odamlar gavjum joylarda kichik tomosha ko'rsatib yurishgan. Ehtimol, bu qadimiy ayiqlar o'yinidan bizgacha yetib kelgan totem hayvonlar o'yinining bir ko'rinishi ham bo'lishi mumkin.

Xalq harakatli o'yinlarining rivojlanish xronologiyasi:

Mustaqillik sharofati tufayli jismoniy tarbiya va sport sohasida keng istiqbollar ochilmoqda, bu, ayniqsa, xalq milliy o'yinlari va mashqlari, sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida namoyon bo'lmoqda. Ularni doimiy va muntazam qo'llash-yaxshi natija bermoqda, o'quvchilarni sog'lom, baquvvat, chaqqon, kuchli qilib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ilgarilari keng omma ishtirok etgan Navro'z bayramlari, sayllar, to'ylarda xalq o'yinlari, jismoniy mashqlar, umuman milliy sport turlarisiz o'tkazilmagan. Afsuski, mamlakatda ular butunlay esdan chiqib, unutilayozdi, shuning uchun ularni izlash va tiklash o'z xalqini va millatini e'zozlagan har bir kishining burchi bo'lib qolmog'i kerak. Jismoniy tarbiya nuqtai nazaridan ularni o'rganish, tatbiq etish shu kunning va kelajak avlodni tarbiyalashda eng dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu jarayonda tariximizdan meros bo'lib qolgan o'zbek xalq harakatli o'yinlarini hayotga tatbiq etishga kengroq yo'l ochib berilishi, uni ommaviy tus oldirilishi, oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktablarda, dam olish joylarida, har xil marosim va bayramlarda uni tashkillashtirishi o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etishi muqarrardir. Milliy xalq harakatli o'yinlari qadim-qadim zamonlardan boshlab xalq marosimlarida, rasm-rusumlarida va urf-odatlarida mustaqil bir soha sifatida musobaqalarda, bahslarda keng qo'llanilgan.

So'nggi yillarda mustaqillik tufayli millatimiz qadriyatlari sifatida tanilgan o'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarining mavqei va maqomi tamomila tiklandi, ular yana yoshlar tarbiyasidan o'rin oldi, turli milliy bayramlarimiz, tantanayu marosimlarimizda keng qo'llanila boshlandi. Ular ta'lim muassasalari o'quv rejalari tarkibiga fan sifatida kiritildi.

Hozirgi davrga kelib xalq harakatli o'yinlar ko'plab zamonaviy o'yinlar tarkibida o'z aksini topyapti. Agar boshqacharoq qilib aytadigan bo'lsak zamonaviy o'yinlarning asosini xalq harakatli o'yinlari tashkil qiladi. Masalan, "To'pni to'xtatib urish", "Bo'ri zovur ichida", "Kartoshkani ek" kabi o'yinlar basketbol o'yinining texnikalari hisoblanadi. Yoki "Kim oldin", "Yo'lda tutish", "Yerdan baland" kabi o'yinlar esa yengil atletikaga mosdir. Ushbu xalq harakatli o'yinlar va zamonaviy o'yinlar shu tariqa kelajak avlod uchun yetib boradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa: Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida qo'yiladigan asosiy maqsad — sog'liqni mustahkamlash hamda yuqori sport natijalariga erishish avvalam bor yoshlikdan boshlab umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratadi. Aksariyat olimlarning ta'kidlashicha, muayyan sport turi bo'yicha muntazam o'tkazib boriladigan hamda hajm, shiddat va mazmun jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mashg'ulotlar bolalar va o'smirlar organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Lekin, umuliy jismoniy tayyorgarlikka asoslangan va tor doirada ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlar salbiy oqibatlariga olib kelishi kuzatilgan. Binobarin, dastlabki o'rgatish bosqichida jismoniy va texnik-taktik mashqlar nisbatini to'g'ri rejalashtirish bolalar sog'lig'i va ularning harakat mahoratini samarali shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Demak, xalq harakatli o'yinlari paydo bo'lishida juda katta omillar sababchi bo'lgan. Xalq harakatli o'yinlar bolalarni milliy ruhda tarbiyalash uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari xalq harakatli o'yinlari kelajak avlodga zamonaviy o'yinlar tarkibida kirib boradi. Chunki har bir zamonaviy o'yinlar negzida o'zbek xalq o'yinlari poydevor vazifasini o'taydi. Xalq harakatli o'yinlari bolalarni kitob mutolaa qilish uchun ham chorlaydi chunki ko'plab asarlarda xalq harakatli o'yinlari keltirib o'tilgan. Xalq harakatli o'yinlarning asosiy vazifasi milliy ruh bilan birgalikda bolalarni sportga va sog'lom turmush-tarzi tomon yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.: O'zbekiston, 1996.
2. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. T. 1996.
3. Usmonxodjayev T.S., Abdullayev Sh.A., Soliyev A.O., Abdumalikova E.N. Bolalar va o'smirlar sporti asoslari. T.: Zamon-Poligraf, 2014.
4. Расулов Р., К^аландаров М. Бошлангич синфларда харакатли уйинлар: Укув кулланма. Т., 2006.